

Musiqiy ifoda vositalari



Musiqi xilma-xildir: u tez yoki sokin, baland yoki past ovozli, quvnoq yoki g'amgin, jo'shqin yoki mayin bo'lishi mumkin. Buning uchun unga **musiqiy ifoda vositalari** yordam beradi.



Ohang – o'zaro bog'langan tovushlar ketma-ketligi.

Lad – musiqaning quvnoq yoki g'amginligini tushunishga yordam beradigan musiqiy kayfiyat.

Sur'at – musiqaning tezligini ifodalaydi: u yugurish kabi tez yoki sayr qilish kabi sekin bo'lishi mumkin.

Ritm – turli uzunlikdagi musiqiy tovushlarning ketma-ketligi.

Tembr – musiqiy cholg'ularning yangrashini farqlashga yordam beradigan tovush tusi.

Musiqada registr – tovushlarning balandligi. U quyi, o'rta yoki yuqori bo'lishi mumkin.

Dinamika (tovush balandligi) – musiqaning yangrash kuchi, u shivirlash kabi past ovozda yoki momaqaldiroq gumburlashi kabi baland ovozda yangrashishi mumkin.



Tasavvur qiling, musiqa rasmga, tovushlar esa xuddi rassom o'z asarini jonlantiradigan bo'yoqlarga o'xshaydi.

Kuylar o'z xususiyatiga ko'ra sho'x, qizg'in yoki sokin, mayin, shuningdek, ifodali, yumshoq, tantanali, jo'shqin, g'amgin va nafis bo'lishi mumkin.

Lad kuyni yorqin va quvonchli yoki chuqur va o'ychan qilib, unga muayyan kayfiyat bag'ishlaydi.



Major – musiqa bamisoli quyoshli kundagi xush kayfiyatimiz kabi quvonchli yangraydi.



Minor – musiqa bamisoli yomg'irli kundagi kayfiyatimiz kabi g'amgin yangraydi.



Musiqani tinglab, uning “bo'yoqlar”ini ko'rishga harakat qiling. Musiqaga mos rasm chizing.



12



Yomg'ir vals
Frederik Shopen



13

Italyancha polka
Sergey Raxmaninov



Berilgan so'zlarni shifrlab, rebuslar tuzing:
ohang, lad, sur'at, ritm, tembr.

